

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Jumayeva Zamira Bustonovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11624102>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat tizimlari rivojlanishining dolzarb masalalari, shu jumladan, uning asosiy yo'nalishlari va tashkil etuvchilari, elektron tijorat ekotizimi va platformalarini yaratish masalasi va elektron tijoratni rivojlantirishdagi muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, katta hajmli ma'lumotlar, internet, raqamli elektron platformalar, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, kiberxavfsizlik.

DEVELOPMENT PROSPECTS OF ELECTRONIC COMMERCE IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. In this article, the current issues of the development of e-commerce systems in the context of the digital economy in Uzbekistan, including its main directions and organizers, the issue of creating an e-commerce ecosystem and platforms, and problems in the development of e-commerce are considered.

Keywords: e-commerce, big data, internet, digital electronic platforms, digital economy, digitization, cyber security.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы развития систем электронной коммерции в условиях цифровой экономики в Узбекистане, в том числе ее основные направления и организаторы, вопрос создания экосистемы и платформ электронной коммерции, а также проблемы в развитии электронной коммерции.

Ключевые слова: электронная коммерция, большие данные, Интернет, цифровые электронные платформы, цифровая экономика, цифровизация, кибербезопасность.

KIRISH

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat xam hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda.

Huddi shuning uchun ham innovasion texnologiyalar yordamida mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida bir qancha muhim qarorlar qabul qilindi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lishini ta'kidlar ekan, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, shu bilan birga, korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vosita ekanligiga e'tibor qaratdi [1]. Raqamli iqtisodiyot va uning tarkibiy kismi bo'lgan elektron tijorat xo'jalik yuritishning ilg'or bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi.

Olingan natijalarni amaliyotda qo'llash esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab

chiqarish jarayonlari, 3D-texnologiyasi, bulutli texnologiyalar, masofaviy tibbiyot xizmatlari ko'rsatish, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berish, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni elektron usulda sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Mamlakatimizda bugungi kunda o'nlab elektron savdo do'konlari ishlab turibdi. Lekin ularning aksar qismi poytaxtimizda ish yuritadi. Ayrimlarining viloyatlarda ham tarmoqlari bor.

Raqamlashtirilgan va mobil texnologiyalar vositasida masofaviy ta'lim berish hamda elektron tijorat dunyoda koronavirus infeksiyasi avj olgan kunlarda eng muhim hayotiy ehtiyojlardan biriga aylandi, desak ham bo'ladi. Masalan, mamlakatimizda hozirgi kunda deyarli barcha fanlar bo'yicha masofaviy ta'lim berish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Kundalik turmushda oylik maoshning plastik kartaga tushishi, elektron to'lovlar yordamida kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lovlarning o'tkazilishi, kartadan-kartaga pul o'tkazmalari, uy yoki ishxonaga taom, oziq-ovqat mahsulotlari buyurtma qilinishi ham raqamli iqtisodiyotning jadallashuviga olib kelmoqda, elektron tijoratning rivojlanishi kundalik turmush ehtiyojlarini hal etishga ko'makdosh bo'lmoqda.

Kompaniyalar elektron tijorat yordamida bo'lg'usi mijozlar, mol yetkazib beruvchilar va buyurtmachilar bilan web tizimi orqali aloqa o'rnatishi, savdo bitimlarini amalga oshirish uchun kerakli hujjatlarni elektron ko'rinishda ayirboshlashi, tovar va xizmatlar sotilishi va yetkazib berilishini nazorat qilishi, tovar reklamasi va xariddan keyingi qo'llab-quvvatlash va xarid uchun elektron to'lovni amalga oshirish masalalarini arzon va qulay amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun elektron tijorat kompaniyalar faoliyatining ajralmas qismiga aylanib boryapti. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar, elektron tijoratning imkoniyat va istiqbollari aniq his qilgan holda, bu sohaga yetarlicha investitsiya ajratmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Polshalik olim Zdzisław Kulczyk "Globalizasiya jarayonida elektron tijoratni rivojlantirish istiqbollari" nomli asarida: "Elektron tijorat keng ma'noda biznes munosabatlarining har qanday shakli bo'lib, unda ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar Internet texnologiyalaridan foydalanish orqali sodir bo'ladi" [5], – deb ko'rsatgan.

Ye.O.Vostrikova, A.P.Meshkova hammuallifligidagi "Raqamli iqtisodiyot sharoitida Rossiyada elektron tijorat yuritishning istiqbollari" nomli asarida: "Elektron tijorat – axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda biznesni yuritish shakli. Elektron tijorat ob'ektlariga nafaqat an'anaviy xizmatlar va tovarlar, balki axborot turlari ham kiradi. Umuman olganda, Rossiyada elektron tijoratni rivojlantirish tendensiyalarini ijobiy deb hisoblash mumkin.

Koronavirus pandemiyasi hamma narsaga, shu jumladan, pul sarflash va bozordagi firmalarning o'zaro aloqasiga ta'sir qildi. Hozirgi tendensiyalar xususiy va davlat sektorlarida raqamlashtirishning tezlashishini ko'rsatadi", – deb keltirilgan [6].

S.K.Yeshugova, S.K.Xamirzova hammuallifligidagi asarida: "Raqamlashtirish sharoitida elektron tijoratning tez o'sishi kuzatilmoqda, shuning uchun bu dolzarb masaladir. Bu rejalashtirilgan foyda olish uchun raqamli texnologiyalarni takomillashtirish, Internet platformalarini rivojlantirish, savdo kanallari va on-layn bozorda reklama qilish uchun Internet-marketing vositalarini o'rnatish zarurligini anglatadi", – deb ko'rsatilgan [6].

D.A.Nasimovning asarida: "To'rtinchi sanoat inqilobi avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va robotlashtirish bilan birgalikda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga

asoslangan bo‘lib, axborot texnologiyalarining rivojlanishi esa elektron tijoratning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi” [7], – deb ta’riflanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ilmiy tadqiqot ishimizni yopitishda taqqoqlash, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, iqtisodiy matematik ucullapdan foydalanildi. Tahlillar davomida mamlakatimizda elektron tijoratning juda orqadaligi, sohani rivojlantirish mobaynida yetarlicha investitsiya kiritilmaganligi va sohaga oid boshqa bir qator muammolar aniqlandi. Ma’lumotlapda ekonometrik tahlil usulidan foydalanib, elektron tijoratning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni tahlil qilindi va kengroq qilib yopitib bepishga hapakat qilindi. Natijada muammolap aniqlanib, muammolapga tegishli ilmiy acoclangan takliflap bepildi va mushohada qilish acocida ilmiy xulocalapga kelindi.

NATIJARAR

Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda davlat organlari elektron tijoratni rivojlantirishda dunyo tajribasida keng qo‘llanilgan quyidagi tamoyillarga amal qilmoqda [5]:

- elektron tijoratni rivojlantirishda korporativ sektor faol rol o‘ynashi lozim;
- elektron tijoratga nisbatan davlat organlari tomonidan asoslanmagan turli cheklovlar qo‘yilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim;
- davlat hokimiyati elektron tijorat jarayoniga, ushbu soha sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash va huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida aralashishi mumkin;
- elektron tijoratni boshqarish choratadbirlarini ishlab chiqishda davlat hokimiyati internetning o‘ziga xosliklarini inobatga olishi lozim;
- elektron tijorat jarayoni ma’muriyhududiy bo‘linish va davlat chegaralariga bog‘liq bo‘lmagan ravishda global ko‘lamda sodir bo‘lishi mumkin.

Internetning jadal rivojlanishi va abonentlari sonining keskin o‘sishi an’anaviy bozorlarni on-layn tijorat yoki elektron tijorat deb ataladigan noan’anaviy bozorga o‘zgartirmoqda. Hozirda iste’molchilar va tadbirkorlar uchun barcha segmentdagi mahsulot va xizmatlarni qamrab oladigan jahon elektron tijorat bozorlarida arzon va qulay usulda sotib olish va sotish imkoniyati paydo bo‘ldi.

XULOSA VA MUNOZARA

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni jadallashtirish elektron tijoratning rivojlanishida eng katta asosdir, buning uchun esa quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

AKTning rivojlanishi va uning YaIMdagi hissasining oshishi unga muvofiq keladigan raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi darajasini belgilaydigan ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan Internet tezligi, unga kirish qulayligi va albatta, uning bahosini arzonlashtirish lozim;

AKT tarmoqlariga investitsiya oqimini kuchaytirish lozim. Bu nafaqat innovasion rivojlanishni rag‘batlantirish orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatining rivojlanishiga olib keladi, balki mehnat unumdorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, yangi faoliyat turlarining paydo bo‘lishiga olib keladi, shu bilan birga, aholi yashash sifatini oshiradi;

REFERENCES

1. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF UZBEK PEDAGOGY IN DEVELOPING THE SPIRITUALITY OF FUTURE TEACHERS. *Modern Science and Research*, 3(5), 386-392.
2. Alimova, S. (2024). THE MAJOR FACTORS INFLUENCING ON CAREER DEVELOPMENT AND ON ADVANCE OF A CAREER LADDER. *Modern Science and Research*, 3(5), 417-425.
3. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.
4. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
5. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
6. Shadiyev, A. K. (2023). FUNCTIONS, METHODS, MANAGEMENT DECISIONS AND SOCIAL FACTORS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 87-93.
7. Шадиев, А. Х. (2020). Факторы, влияющие на развитие экотуризма. *Достижения науки и образования*, (5 (59)), 31-32.
8. Shadiyev, A. (2022). О ‘QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O ‘QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 13(13).
9. Davronov, I. O., & Shadiyev, A. K. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4), 40-42.
10. Khalilov, B. B. (2024). ROLE OF INTERNAL AUDITING IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 413-419.
11. Bahromjon, X., & Nargiza, N. (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805-811.
12. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.
13. Supiyevna, B. M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 134-139.
14. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
15. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибадорлигини ошириш. *Интернаука*, (22-3), 88-90.

16. Supiyevna, B. M. (2022). Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish.
17. Bazarova, M. S., & Shahboz, K. (2022). Ways to increase the efficiency of available tourist facilities in Uzbekistan. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 16-18.
18. Bazarova, M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 563-567.
19. Жумаева, З. К. (2023). ПУТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 530-533.
20. Jumayeva, Z. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE INDUSTRIES AS A FACTOR OF GROWTH OF NATIONAL ECONOMY: REVIEW OF FOREIGN EXPERIENCE AND PROSPECTS FOR THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 241-246.
21. Jumayeva, Z. Q. (2017). THEORIES OF ENSURE STABILITY IN LABOUR MARKETS OF DEVELOPED COUNTRIES. *Инновационное развитие*, (4), 64-66.
22. Nafisa, R. (2024). Organization of Management in Small Business and Private Entrepreneurship. *Miasto Przyszłości*, 48, 503-509.
23. Junaydulloevich, A. A., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. Business and Product Delivery in the Context of Covid-19. *JournalNX*, 1305-1307.
24. қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
25. Таирова, М. М., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Стратегия развития управления цепями поставок в обрабатывающей промышленности. *International scientific review*, (LXXI), 56-58.
26. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
27. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
28. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT VA UNING USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.
29. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 608-615.
30. Ikromov, E. (2024). A METHODOICAL APPROACH TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(5), 180-188.
31. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF ETHICS AND CULTURE IN THE INTRODUCTION OF MODERN METHODS OF MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(5), 171-179.

32. Ibodulloyevich, I. E. (2024). MENEJMENTNING ZAMONAVIY USLUBLARINI JORIY ETISHDA ETIKA VA MADANIYATNING AHAMIYATI.
33. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
34. Zamira, J. (2024). ENSURING ECONOMIC SECURITY IN THE BANKING SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 343-348.
35. Jumayeva, Z. (2024). IQTISODIYOT RIVOJIDA INNOVATSIYANING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(5), 504-511.
36. Jumayeva, Z. (2024). MOLIVAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 3(5), 512-518.
37. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
38. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONANING MOLIVAVIY BAQARORLIGI: OMILLARI VA KO 'RSATKICHALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 140-146.
39. To'rayevna, S. N. (2023). YETAKCHILIK USLUBI SIFATIDA MURABIYOTDAN FOYDALANISH MENEJERLARNI TAYYORLASH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 399-408.
40. To'rayevna, S. N. (2023). DEMOKRATIYA VA IQTISODIYOT O'RTASIDAGI MUNOSABAT" SIYOSIY SHAXS" NAZARIDAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 387-394.
41. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
42. Sodiqova, N. (2024). TECHNOLOGY DISCOURSE AND THE POLITICAL ECONOMY OF NEW MEDIA. *Modern Science and Research*, 3(2), 376-384.
43. Akbarovna, N. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SOHALARDA VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHIDA MAMLAKATNING IQTISODIY SALOHIIYATI.
44. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT SOLIQ QO 'MITASINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RAQAMLASHTIRISH STRATEGIYASI.
45. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF MARKETING RESEARCH. *Modern Science and Research*, 3(5), 306-312.
46. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI-MA'MURIY HUQUQ OBYEKTI SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 371-377.
47. Hakimovich, T. M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI.
48. Toshov, M. (2024). MODERN MANAGEMENT AND DIGITALIZATION. *Modern Science and Research*, 3(5), 728-734.
49. Hakimovich, T. M. (2024). THE SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS AS A TOOL IMPROVEMENTS MANAGEMENT OF THE ORGANIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 353-358.
50. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470-476.

51. Toshov, M. (2023). CREATIVE ECONOMY: ESSENCE AND STRUCTURE. *Modern Science and Research*, 2(12), 499-505.
52. Toshov, M. (2023). FORMATION OF PRINCIPLES HR (HUMAN RESOURCE) BASED ON KEY INDICATORS (KPI). *Modern Science and Research*, 2(12), 477-482.
53. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.
54. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 620-627.
55. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology*, 3(5), 8-14.
56. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology*, 3(5), 15-21.